



HISTORY OF THE REFLECTION OF FORCED LABOR IN THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM

Nargizaxon Sharipova

Senior Lecturer, Associate Professor

Kokand State University

Kokand, Uzbekistan

E-mail: nar.kokand@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: education, school, teacher, student, decision, government, society, pedagogy

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: The development of various sectors of the national economy depends on the qualifications of specialists in these fields. There are areas where additional workforce is required to achieve efficiency. The involvement of students in agricultural cultivation, which began during the Soviet era and continued through the years of independence, has had an impact on education. A decline in the quality of education has been observed. This article examines the origins and consequences of this unfortunate situation based on scientific literature, periodicals, and archival materials.

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA MAJBURIY MEHNATNING AKS ETISH TARIXI

Nargizaxon Sharipova

Katta o'qituvchi, dotsent

Qo'qon davlat universiteti

Qo'qon, O'zbekiston

E-mail: nar.kokand@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ta'lim, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, qaror, hukumat, jamiyat, pedagogika

Annotatsiya: Xalq xo'jaligi tarmoqlari rivoji soha mutaxassislarining malakasiga bog'liq. Shunday sohalar borki, samara uchun qo'shimcha ishchi kuchlari darkor. Sovet hokimiyati yillarida boshlangan va mustaqillik yillarida ham davom etgan qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishga ta'limni jalb etilishi ta'limda o'z aksini topdi. Aynan shu davrdan ta'lim sifatini pasayishi kuzatildi. Maqolada

ilmiy, davriy, arxiv materiallari asosida bu ayanchli holatning kelib chiqish ildizlari va oqibatlariga nazar tashlandi.

ИСТОРИЯ ОТРАЖЕНИЯ ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ТРУДА В СИСТЕМЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Наргизахон Шарипова

Старший преподаватель, доцент

Кокандский государственный университет

Кокан, Узбекистан

E-mail: nar.kokand@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образование, школа, учитель, ученик, решение, правительство, общество, педагогика

Аннотация: Развитие отраслей народного хозяйства зависит от квалификации специалистов в этих отраслях. Существуют сферы, где для достижения эффективности требуются дополнительные рабочие силы. Привлечение учащихся к выращиванию сельскохозяйственных культур, начатое в годы советской власти и продолжавшееся в годы независимости, отразилось на образовании. Наблюдалось снижение качества образования. В статье на основе научных, периодических и архивных материалов рассматриваются истоки и последствия этой печальной ситуации.

1. KIRISH. Sovet Ittifoqi davrida ta'lim sohasi va pedagogika tizimi davlat siyosatida muhim o'rin tutdi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlandi. Qishloq xo'jaligi va jamoat ishlari masalalari, o'z navbatida, jamiyatning o'ziga xos talablari va ehtiyojlariga javob berishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sohasini ham ushbu jarayonlarga jalb qilish amalga oshirildi. Bu siyosatning asosiy maqsadi – mehnatni tashkil etish, ishchi kuchining salohiyatini oshirish va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash edi. Xalq ta'limiga yordamchi kuch sifatida qarash, ularni qo'shimcha ishlarga jalb etish dastlab, targ'ibot ishlariga jalb qilish bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik, saylov jarayoni, aholini ro'yxatga olish, qolaversa qishloq xo'jaligi ishlariga ham tortishda ko'rindi.

2. TADQIQOT USULLARI

3. NATIJALAR. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi 349-son "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq o'qituvchilarni obodonlashtirishning turli ko'rinishlariga, qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilinishi taqiqlandi[26].

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, xalq xo'jaligini tiklash uchun boshlangan harakat barcha fuqarolarni "butun kuch-g'ayratini" vatanga bag'ishlashga chorladi. Sovet davrida ta'lim sohasini jamoat va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan katta ijtimoiy va iqtisodiy siyosat bo'lgan. Bu jarayon mehnat resurslarini samarali boshqarish, ishchi kuchining yuqori malakali bo'lishini ta'minlash va ishlab chiqarishning talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashga xizmat qilgan. Biroq, ushbu jarayonda aniq aytib o'tilgan muammolar va nomutanosib ish sharoiti maktab o'qituvchilarining o'z ustida ishlash uchun vaqt topa olmasligi, dars sifatini pastlashi va qolaversa, o'zini oilaga bag'ishlashga to'sqinlik qildi.

O'qituvchilarni qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilishda hukumat tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar katta rol o'ynadi. Jumladan, O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasi 1949 yil 29 martda "O'zbekistonda maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash va xalq maorifini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Qonunni tasdiqladi. Qonun asosida respublikada o'rta maktablarni politexnizatsiyalashtirish borasida ishlar boshlab yuborildi. Sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlar maktablarni otaliqqa olib, ularni zarur asbob uskunalar bilan ta'minlab, maktab binolarini qurish, kengaytirish va ta'mirlashga, ustaxonalar va o'quv xonalari tashkil etishga yordam berib turdilar. Bu esa ta'lim sohasini qishloq xo'jaligiga bog'lab qo'yish uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, SSSR Ministrlar Sovetining "1954-1958 yillarda O'zbekiston SSRda paxtachilikni rivojlantirish" haqidagi qarori qabul qilindi. Unga asosan xalq ta'limi bo'limlari qishloq maktablarini ish faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim bo'lib, paxtachilik brigadalari tuzildi[2. 18].

MUHOKAMA. Xalq maorifiga rahbarlik qilishda mahalliy sovetlar, shu jumladan, mehnatkashlar deputatlari rayon sovetlari faoliyati muhim o'rin tutgan. O'zbekiston SSR mehnatkashlar deputatlari rayon sovetlari haqidagi Nizomga muvofiq, O'zbekiston Oliy Sovetining 1958 yil 18 yanvar qaroriga muvofiq, hudud sovetlari kompetensiyasiga xalq maorifiga yordam berish bilan birga ularga rahbarlik qilish ham biriktirildi[1. 10-11]. Bu qaror ta'limni hududlarda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish uchun asos bo'ldi. O'zbekiston aholisi paxta ekinining xizmatkoriga aylandi. Paxta yig'im-terimiga jalb qilish ommaviy bo'lgan. Lekin davriy nashr va targ'ibot materiallari balandparvoz shoirlar bilan ko'tarinki ruhda "Oq oltin"ni yetishtirish va yig'ib olishga qaratildi. Ta'lim sohasi vakillari o'z tashabbuslari bilan qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatayotganliklari, katta yutuqlarga erishayotganliklari bot-bot nashr etila boshlandi. Dam olish kunlarini va bo'sh vaqtlarini dalalarda o'tkazayotgan o'qituvchilar namuna qilib keltirila boshlandi [9. 1].

Yangi Fargona davriy nashrining "Mehnat o'tpuskasi dalada" deb nomlangan ma'lumotida keltirilishicha, tabiat inijliklari qishloq xo'jalik ekinlariga salbiy ta'sir ko'rsatganligi uchun 4-

maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi B.Rasulov mehnat ta'tili olib, dalada mexanizatorlik qilgan[3. 1]. Har yilning bahor faslidan boshlangan qishloq xo'jalik ishlari kech kuzga, aksariyat hollarda dekabrning oxirigacha davom etdi. O'quvchi va o'qituvchilar may oyida g'o'za parvarishi bilan band bo'lgan. Yoz oylarida kolxozga yem-xashak tayyorlashda yordam berishdi. Sentabr, oktabr, noyabr oylarida paxta yig'im-terimi bilan band bo'lishdi[4. 3].

Ta'limning jamoat va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga o'ziga xos hissa qo'shdi. Ayniqsa, ta'lim tizimi mehnat resurslari ishlab chiqarishning talablariga moslashgan holda muvofiqlashtirildi. Qishloq xo'jaligi sohasida esa, o'qituvchilar va o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlari bu sohadagi texnologiyalar, maxsuslashgan bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirishga yordam beradi deb belgilandi. Ya'ni, politexnik maktablarda tashkil etilayotgan o'quvchilar brigadasi ma'sul o'qituvchilar va maktab rahbariyati boshchiligida qishloq xo'jalik ishlariga bog'landi. Masalan, Namangan oblast Zadaryo rayonida 35 ta o'quvchilar brigadasi tashkil etilgan. 750 gektar yerga o'qituvchi boshchiligida paxta ekilgan. Demak, bundan o'quv yili va mehnat ta'tili davrida ham dala bilan band bo'lingan degan xulosa qilsa bo'ladi. Bu holat ta'lim sifatini tushirishga, respublika aholisining katta qismi joylashgan qishloq maktablarining asosiy maqsadidan og'ishiga sabab bo'ldi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari shu darajada avj oldiki, qishloq o'qituvchisi ham o'zining asosiy vazifasi ta'limni yuksaltirish emas, balki, o'quvchilarni xavfsizligini saqlagan holda, qishloq xo'jalik ishlarini bajarish va "Rus og'asi boshliq vatan" ularning oldiga qo'ygan paxta tayyorlash rejasini bajarishdan iborat deb o'ylashga majbur bo'ldi. Darhaqiqat, qishloq bolalarini maktabni bitirish arafasida ham bitirish shahodatnomasi, ham kasb egasi(qishloq xo'jaligi uchun tayyor mutaxassis ishchi) guvohnomasini olishi katta hayotga darhol kirishib ketishiga zamin tayyorladi.

Samarqand oblastida 1960-1961 o'quv yilida 74 ta o'rta maktab ishlab chiqarish ta'limiga ixtisoslashtirildi. Ishlab chiqarishning asosi, ya'ni amaliyot o'taladigan joylar – kolxozlar, sovxozlar, ishlab chiqarish tashkilotlari, ustaxonalar, traktor parklari bo'lgan. 9-11-sinflarda 36 turda – quruvchi, slesar, mexanizator-paxtakor, hayvonchilik, tikuvchi, duradgor, sekretar-mashinistkalar, bolalar bog'chalari uchun tarbiyachilar va boshqa yo'nalishdagi kasblar o'rgatildi[11. 38].

O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1963 yil 5-yanvardagi "O'zbekiston SSRda xalq ta'limining keyingi rivoji to'g'risida"gi 12-son qarori asosida 8-sinf o'quvchilari orasida kasbga yo'naltirish ishlari targ'ibotini kuchaytirish, ularni qishloq xo'jalik ishlariga – mexanizatorlik, qurilish ishlariga jalb qilish ko'zda tutildi. O'rta umumiy maktablardagi politexnik sinflarda paxta terish mashinalari mexanizatorlari, hayvonchilik-mexanizatori va boshqa mutaxassislar tayyorlashni ko'paytirish bo'yicha topshiriq berildi[12. 93].

Paxta yig'im-terimiga alohida tayyorgarlik ko'rildi. O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1964 yil 7 sentabrdagi "Paxta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi 145-A sonli buyrug'iga ko'ra hududlarda terimchilarga xizmat ko'rsatish uchun avtoklublar tashkil etildi. Toshkentda-10, Sirdaryoda-15 ta, Buxoroda-7 ta, Samarqandda-12 ta, Farg'onada-10, Andijonda-10 ta, Surxondaryoda-10 ta, Qashqadaryoda-2 ta, QQAAR-7 ta, Xorazmda-7 ta, jami 89 ta avtoklub tashkil etilgan[13. 54]. Bu avtoklublarga kinofilmlar ko'rsatish bilan birgalikda, targ'ibotchilar guruhi ham biriktirilib, dala shiypolarida ma'ruzalar o'qilgan. Targ'ibotchilar guruhi tarkibi asosan o'qituvchilardan iborat bo'ldi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963 yil 21 sentabrda "Kolxoz va sovxozlarga 1963 yilda yetishtirilgan paxta hosilini yig'ishtirish va davlatga topshirishga yordam qilish to'g'risida"gi 555-sonli qarorini bo'yicha Samarqand maorif boshqarma boshlig'i o'rinbosari A.Mahmudovning 1963 yil 28 sentabrdagi buyrug'i qabul qilingan. Buyruqda faqat qishloq maktablarini paxtaga jalb qilish ko'rsatilgan. Qishloq va posyolkalardagi maktablarning 5-11 sinf o'quvchilarini 1-30-oktabrgacha paxta yig'im-terimida tashkiliy ravishda o'quv planida ko'rsatilgan, o'quv yili oxiridagi o'quv ishlab chiqarish praktikasi hisobidan qatnashishlari belgilandi. O'quvchilarning paxta yig'im-terimiga qatnashishlarini to'g'ri va namunali tashkillash bo'yicha tadbir tuzish lozimligi, o'quvchilar tomonidan terib topshirilishi lozim bo'lgan paxta terish grafigini shakllantirish kabi topshiriqlar rayon xalq maorif bo'limlari va har bir maktabga yuklandi. Qolaversa bu rejalar paxtaga jalb etilgan har bir sinf kesimida (5,6,7,8,9,10,11-sinflar) shakllantirildi[14. 402].

Samarqand qishloq oblast xalq maorif bo'limining 1963 yil 18 oktabrdagi 124-sonli buyrug'ida aytilishicha, ayrim rayon xalq maorifi bo'limi boshliqlari va maktab direktorlari paxta terimiga qatnashishni yaxshi yo'lga qo'ymagan. Norozilikka sabab bo'lgan holat quyidagicha – Bulung'ur rayonida maktab o'quvchilari va o'qituvchilari, texnik xodimlarini safarbar etish 25 foizga, Nurota rayonida 3,6 foizga, Samarqand rayoni 2,4 bajargan xolos. 17 oktabrda Bulung'ur rayonida 15882 kishi o'rniga 10849 nafar kishi paxtaga chiqqan, Narpay rayonida esa 10908 kishi o'rniga 8860 kishi, Kattaqo'rg'on rayonida 11713 kishi o'rniga 10105 kishi, Nurotada 7819 kishi o'rniga 1521 kishi, Pastdarg'omda 10359 kishi o'rniga 9073 kishi, Samarqand rayonida 20994 kishi o'rniga 3858 kishi paxtada qatnashgan. Maktab direktorlari o'quvchilarga o'qituvchilarni bosh qilish o'rniga ota-onalariga qo'shib paxtaga jalb qilishgan. Paxta dalalarida o'qituvchilar tomonidan yetarli darajada targ'ibot ishlari olib borilmagan. Devoriy gazetalari, musobaqalar tashkil etish, rag'batlantirish past darajada bo'lgan. Oqibatda bir qancha maktab direktorlariga qat'iy hayfsan e'lon qilingan[15. 430].

O'qituvchilarga o'zining lavozim vazifasiga kirmaydigan ishlarni bajarmaganlik yuzasidan ayblovlari qo'yildi. Masalan, Bulung'ur rayonidagi 18-maktab direktori Axunov paxta

kampaniyasining siyosiy tus bermay, rejadagi 338 nafar o'quvchi va o'qituvchi o'rniga 115 kishi, 60-maktab direktori Yunusov esa 405 nafar ishtirokchi o'rniga 182 kishi chiqishiga yo'l qo'ygan. Shunday holat 96-maktab direktori Niyozov tomonidan ham yo'l qo'yilgan. 642 nafar o'rniga 405 nafar, ba'zi holatlarda 135 nafar o'quvchini paxtada qatnashishiga ham yo'l qo'ygan. Mana shunday bahonalar sabab maktab direktori Axunov ishdan bo'shatilgan, Niyozov va Yunusovga qattiq hayfsan berilgan. Paxtaga jalb etilgan o'qituvchi va o'quvchilarning oilaviy sharoiti, kasal bo'lishi mumkinligi ularni qiziqtirmagan[16. 435].

Respublikaning barcha hududlarida paxta kampaniyasiga jalb qilingan o'quv yurtlari rahbar boshchiligida paxta dalasiga yetib borishlari ta'kidlandi. Bundan tashqari maktab rahbariyati hisobot topshirish va kunlik qatnashuv yuzasidan javobgar tariqasida kechasi soatlab kolxoz va sovxoz idorasida qolib ketdi. Ertalab yana kunlik ma'suliyatni bajarishga kirishdi[17. 457].

Hududlardan ta'limda qo'lga kiritilgan yutuqlar emas, balki "Oq oltin"ni yetishtirish uchun namunali harakat qilgan maktablar alohida tahsinga sazovar bo'lishdi. Xususan, Toshkent oblastidagi Oqqo'rg'on rayoni paxta ekilgan hududlar va ularga ishlov berishga jalb qilingan o'qituvchilar bo'yicha oblastda birinchi o'rinda turgan[18.37]. Hatto paxta yig'im-terim davrida rayonning mahalliy tipografiyasida "Mo'l hosil uchun" deb nomlangan gazeta nashr qilinib, unda rayondagi barcha maktablardan ma'lumotlar berib borilgan. Namunali o'qituvchilar, maktab direktorlari va terimchi o'quvchilarning rasmlari va ma'lumotlari nashr qilingan. Bu kabi targ'ibot ishlari rayon maorif xodimlari o'rtasida faxr tuyg'usini uyg'otishi, vatanga yanada ko'proq "Oq oltin" topshirish majburiyatini oshirish lozim edi[19. 41].

Ta'limni qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish tashabbusi mahalliy sovetlardan chiqar, ta'lim buysunishga majbur edi. Kamiga qoldirilgan dasr soatlarini tig'izlashtirish yoki qisqartirish ma'suliyati Maorif ministrligiga yuklatilardi. Shuningdek darslarni tig'izlashtirish qishloq va shahar maktablari uchun alohida belgilanardi. O'zbekiston Maorif Ministrining 1963 yil 26 noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga jalb qilingan o'quvchilarning qoldirilgan dars soatlarini o'zlashtirish va respublika maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni yaxshilash chora-tadbirlari haqida"gi A-292-sonli buyrug'iga asosan yig'im-terim davrida qoldirilgan dars soatlari shahar maktablarining – 5-8-sinflarda quyidagicha tig'izlashtirish va qisqartirish evaziga qoplanishi haqida buyuriladi: jismoniy tarbiya darslarini haftasiga 1 soatga kamaytirish, qishki va bahorgi ta'tillarni 6-9 kunga qisqartirib, o'quv yili oxiridagi ijtimoiy foydali mehnat amaliyoti hisobidan qoplanishi, 9-10 sinflarda esa yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda ishlab chiqarish fanini haftasiga 3 soatga kamaytirish va choraklar o'rtasidagi ta'tilni 12 kunga qisqartirish, rus tilida o'qitiladigan maktablarda ishlab chiqarish fanini haftasiga 6 soatga kamaytirish, o'zbek tilidagilarda esa 5 soatga qisqartirish ko'zda tutiladi.

Qishloq maktablariga kelganda bunday cheklovlar ko‘paytirilib, 5-8 sinflardayoq qishki va bahorgi kanikullarni 12 kunga qisqartirish, o‘quv yili oxiridagi ijtimoiy foydali mehnat amaliyoti, jismoniy tarbiya, rus tili, chet tili, chizmachilik kabi fanlarni qisqartirish kabi o‘zgartirish kiritilgan. 9-10 sinflarda ham xuddi shunday cheklovlar bor. Demak, qishloq maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilarining olayotgan bilimi va ish jarayoni u darajada ahamiyatga ega bo‘lmagan degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqori sinf o‘quvchilarini yotoq tarzda paxtaga olib ketish doimiy tus oldi. O‘qituvchilar ularga javobgar tarzda, kechayu-kunduz o‘sha yerda bo‘lishlari talab qilinardi. 1966 yil paxta terimida Samarqand oblast Urgut rayonidan 5100 nafar 7-10 sinf o‘quvchi va o‘qituvchilari Ishtixon va Payariq rayonlarida paxta tergan[21. 47].

Paxta terimidan tashqari g‘o‘zaga ishlov berish, yagana, chopiq, chekanka kabi ishlar ham ta’lim vakillarini yordamisiz amalga oshmadi. 1975 yilda Namangan oblast Namangan rayon Engels nomli kolxozda 979 gektardagi g‘o‘zani do‘ldan keyin kolxozchilar va kolxozdagi maktab o‘quvchilari yordami bilan qaytadan tiklashga erishildi[22. 76].

Respublika maktablarini paxta terimiga jalb qilish haqidagi O‘zbekiston Maorif Ministrligining 1976 yil 17-sentabrdagi 65-sonli qarorida maktablar 20-30 kunga paxtaga chiqarilishi mumkin deb belgilangan. Shu jarayon davrida qoldirilgan dars soatlarini tig‘izlashtirish haqidagi Ministrlikning 1976 yil 15 noyabrdagi 31/11-sonli qarorida har bir sinfdagi fanlarni qisqartirish soatigacha ko‘rsatib berilgan[23. 190].

Dastlab politexnik maktablarni tashkil etish bilan boshlangan ta’limga “hujum” yillar davomida o‘zining salbiy mevasini bera boshladi. Ya’ni ketma-ket darslarni qisqartirishlar, tig‘izlashtirishlar dars sifatini pastlashiga sabab bo‘ldi.

Ayniqsa maktablarda biologiya o‘qituvchilari boshliq quyunchilik fermalarini tashkil etilishi, qo‘shimcha ma’suliyat yuklab, kechasiyu-kunduzi maktabga bog‘lanib qolishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston Maorif Ministrligining 1971 yil 27 maydiga “Umumta’lim maktablari, bolalar uylari, internatlarida quyunchilik fermalarini tashkil etish haqida”gi 85-A-sonli buyrug‘iga asosan Qashqadaryo oblast maorif boshqarmasi boshlig‘ining 22 iyun 1971 yildagi “Qashqadaryo oblasti maktablarida quyunchilik fermalari va to‘garaklarini tashkil etish haqida”gi 64-A sonli buyrug‘i chiqarilgan[24. 27]. Quyunchilik fermasiga 9-10-sinf o‘quvchilari birlashtirilgan.

Saylov, aholini ro‘yxatga olish ishlaridan tashqari, o‘qituvchilarni ipak qurti boqqan oilalarga birlashtirib qo‘yish tashabbusi ham qo‘llab-quvvatlandi. Bitta o‘qituvchiga 5 ta oila birlashtirilib, ular haftada 3 marta oilalardagi qurt boqilish jarayonidan xabardor bo‘lishlari va xona haroratini o‘lchab, qayd qilib borishlari, xonaning gigienik holatini nazorat qilib borishlari lozim edi[25]

O‘z vaqtida iqtisod bilan bog‘liq boshqa kasb egalari o‘z ishida bardavom bo‘layotganida, faqat ta‘limning shu darajadagi ayanchli holatga tushishi hech kimni ajablantirmadi.

XX asrning 70-yillarining ikkinchi yarmida va 80-yillarda O‘zbekiston ta‘limining holati haqida biroz fikr yuritildi. Ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omil – qishloq xo‘jalik ishlariga jalb qilishning oqibatlari haqida ham so‘z yuritildi. Ittifoqning markaziy nashri bo‘lgan “Pravda” gazetasida 1984 yili O‘zbekistonda paxta yig‘im-terimiga maktablarni jalb qilish kuchayib ketganligi haqida maqola e‘lon qilingan. Unda qishloq xo‘jalik ishlari juda katta mehnat kuchini talab qilishi va bu ishlarga yordamchi qilib ta‘lim tizimini ham jalb qilinishi tanqid qilinadi. Lekin markaziy gazetada bildirilgan tanqidlarga respublika hukumati tomonidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilmagan.

XX asrning 80-yillariga kelib, paxta yetishtirishga qo‘yilgan reja tobora oshib bordi. Agar 1974 yilda 4 mln tonna paxta yig‘ib topshirilgan bo‘lsa, 1983 yilga kelib 6 mln tonna topshirishga va‘da berildi. Shusiz ham paxtaga qaram bo‘lgan xalqning boshiga yangi g‘am-tashvish keldi. Yoppasiga qishloq xo‘jalik ishlariga jalb qilinish boshlandi. Ichki ishlar vakillari katta yo‘l yoqalarida turib olib, o‘tgan-ketganni to‘sisib, 5 kilogrammdan paxta terishga majburlashlari ortidan homiladoru-kasallar ham aziyat chekdi[5. 6. 7. 8].

Shanbalik, hashar, bayramga bag‘ishlangan hashar kabi sabablar tobora ko‘payib bordi. Kommunistlar shanbalik kuni – 1987 yil 17 oktabr munosabati bilan Farg‘ona oblasti Kirov rayoni maorifchilari ham puxta tayyorgarlik ko‘rib, shanbalik kuni mingdan ortiq o‘qituvchi, 20 mingdan ziyod yuqori sinf o‘quvchilari hasharga chiqqan[10. 1].

XULOSA. Ta‘limni jamoat va qishloq xo‘jaligiga jalb qilishning ijtimoiy samaralaridan biri – jamiyatning rivojiga qo‘shayotgan ijtimoiy hissasini his qilishi bo‘ldi. Ammo shu bilan birga qishloq va shahar o‘rtasidagi farqni chuqurlashtirib yubordi. Qishloq maktablariga xalq xo‘jaligi xizmatkoriga qaraganday qaraldi. O‘zbekistonni qishloq xo‘jaligi davlatiga aylantirilishi markaz uchun qulay bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qo‘yilgan vazifa bilan ta‘lim muassasalaridagi talablar o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keldi.

Shu o‘rinda maktabni qishloq xo‘jaligiga bog‘lab qo‘yishdan kim manfaatdor bo‘lgan degan savolni qo‘yish va javob topish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni o‘qituvchining vazifasi ta‘lim berish bilan birga o‘quvchini mehnatga o‘rgatish, yo‘naltirish ekan, bu umrining asosiy qismini dalada o‘tkazsin degani emas edi. Etmishinchi yillar oxiri, saksoninchi yillarda maktab programmasi to‘la hajmda o‘tilmadi. O‘tilsa ham shosha-pisha, yeng uchida o‘tildi. Ta‘limning saviyasi butunlay tushib ketdi.

Iqtiboslar/ Литературы/ Referens

1. Abdusalomov U., Fayziev M. (1962) Xalq maorifiga rahbarlik qilishda rayon sovetlarining roli. Toshkent: O‘zbekiston SSR davlat nashriyoti.

2. Қодиров И. (1954). Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет. – Ташкент, Укитувчи.
3. Mehnat otpuskasi dalada.// Yangi Farg‘ona. 1979 yil 12 iyul. – № 87. – 1-bet
4. Kelajak bugundan boshlanadi.// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1986 yil 19 sentabr. – №38. – 3-bet
5. Deraza ortidagi bolalar// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1987 yil 5 yanvar. – 4-bet;
6. Otaboev Sh. Qars ikki qo‘ldan// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati – 1987 yil 10 mart – 3-bet;
7. Do‘stmuhammad X. Tuprog‘imiz tashvishlari// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1989 yil 27 avgust. – 2-bet;
8. Shermuhammedov P. Kelajak bugundan boshlanadi.//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 1986 yil 19 sentabr. – 3-bet
9. O‘qituvchilar gazetasi. – 1987 yil 24 sentabr. – 1-bet
10. O‘qituvchilar gazetasi. – 1987 yil 7 oktabr. – 1-bet
11. SamDVA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 549-ish, 38-varaq
12. SamVDA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 119-ish, 93-varaq
13. O‘zMA, 2487-fond, 6-ro‘yxat, 1796-ish, 54-varaq
14. SamVDA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 119-ish, 402-varaq
15. SamVDA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 119-ish, 430-varaq
16. SamVDA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 119-ish, 435-varaq
17. SamVDA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 119-ish, 457-varaq
18. ToshVDA, 1229-fond, 1-ro‘yxat, 17-ish, 37-varaq
19. ToshVDA, 1229-fond, 1-ro‘yxat, 17-ish, 41-varaq
20. SamVDA, 942-fond, 4-ro‘yxat, 119-ish, 464-varaq
21. SamDVA, 929-fond, 1-ro‘yxat, 44-ish, 47-varaq
22. NamVDA, 796-fond, 1-ro‘yxat, 89-ish, 76-varaq
23. SirDVA, 96-fond, 1-ro‘yxat, 941-ish, 190 varaq
24. QashVda, 249-fond, 1-ro‘yxat, 543-ish, 27--varaq
25. Shaxsiy suhbat materiallari. Samarqand viloyati Narpay tumani 31-maktabining sobiq o‘qituvchisi Tog‘aeva Oydin Suyunovna(Samarqand viloyati Narpay tumanida yashaydi. 1957 yilda tug‘ilgan. Hozirda o‘sha hududda yashaydi) suhbatlashildi. 2025 yil 19 yanvar
26. O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/3730223>.